

TTPU xodimlari ERASMUS+ SPACECOM loyihasi doirasida Berlin texnika universitetida bo'lib o'tgan xalqaro yig'ilishda qatnashdilar

2023 yil 21-26 avgust kunlari Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (TTPU)ning professor-o'qituvchi va xodimlari Germaniyaning Berlin texnika universiteti (Technische Universität Berlin)da xalkaro anjumanda ishtirok etdi. Anjumanda Yevropa universitetlari: Sorbonna Universiteti (Sorbonne Université, Parij); EXOLAUNCH kompaniyasi (Germaniya); Technical University Sofia (Bolgariya); AP Hogeschool (Artesis Plantijn Hogeschool Antwerpen) Antwerpen (Belgiya), Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkmaniston va O'zbekistondan 6 ta universitet va institutlar: "Al-Horazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti" (TATU) – loyiha koordinatori; "Farg'ona politexnika instituti" (FarPI); "Toshkent davlat texnika universiteti" (TDTU); "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali"; "O'zbekiston milliy universiteti" (O'zMU); "Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi astronomiya instituti"; "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborotlar texnologiyalari universiteti qoshidagi pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi" professor-o'qituvchi va xodimlari ishtirok etdilar. Anjumanda universitet va institutlarda SPACECOM loyihasi (www.spacecom.uz) ning samarali amalga oshirilishi yuzasidan fikr almashdilar.







